
Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Ekoshaharda olib borilayotgan qurilish ishlarining borishi bilan tanishdi

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov viloyat prokurori Baxtiyor Ismoilov bilan birga Farg'ona shahrida joriy yilning yanvar oy oxirida tamal toshi qo'yilgan "Yangi O'zbekiston" massivlari turkumiga kiruvchi Ekoshaharda olib borilayotgan qurilish ishlarining borishi bilan tanishdi.

Viloyat rahbari 300 gektar maydonda 40 ming aholiga mo'ljallangan yo'ldosh shaharchani bunyod etish ishlarini ko'zdan kechirib, ko'p qavatli uylarni barpo etayotgan quruvchi tadbirkorlar bilan suhbatlashdi. O'rganish davomida ma'lum bo'ldiki, ko'plab uylarning 3-4-qavatlarida qurilishlar yakunlanmoqda, lekin ba'zi quruvchilar tomonidan ishlar belgilangan sur'atda tashkil etilmagan.

Qurilish jarayonlarining sust olib borilayotganini tanqid qilgan viloyat hokimi, belgilangan reja-grafikka mos ravishda ishlarni jadallashtirish, ishchi-xodimlarni ko'paytirish va yaxshi ish tashkil qilgan quruvchilarni qo'llab-quvvatlash kerakligini ta'kidladi.

2022-09-27 16:12:12